PEDAGOGY JOURNAL

http://bestarticle.fast-page.org/

ISSN: 7675-6548 (E)

XALQARO HUQUQDA TRANSMILLIY JINOYAT SIFATIDA E'TIROF ETILGAN KORRUPSIYAVIY JINOYATLARNI SODIR ETGAN SHAXSLARNI USHLAB BERISH INSTITUTINI TARTIBGA SOLISHNING TAMOYILLARI, METODLARI VA MAVJUD HUQUQIY MANBALARNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI

Nomozov Xusan Axmat o'g'li
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti
E-mail: xusannomozov1422@gmail.com

ANNOTATSIYA: Jamiyat va davlatni demokratlashtirish, iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish davlat faoliyatining barcha sohalarida, jumladan, jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va xorijiy sheriklar bilan aloqalarni mustahkamlashni taqozo etadi. Jinoyatga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikning alohida o'rni jinoyat sodir etgan shaxslarni ekstraditsiya qilish bilan bog'liq. Mazkur maqolada ekstraditsiya, ekstraditsiya qilishning huquqiy asoslari hamda ushlab berish institutining nazariy-huquqiy masalalari oid ko'pchilik davlatlar qo'shilgan xalqaro konvensiyalar, jumladan BMTning 2003-yilda qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi hamda Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasi asosida ushlab berish institutining huquqiy asoslari va tartibga solish qoidalari o'rganilib, tahlil qilingan. Xalqaro huquqda ushlab berish institutining nazariy-huquqiy masalalari o'rganilishi yuzasidan xulosalar berildi.

Kalit so'zlar: ekstraditsiya, ushlab berish institutining tamoyillari, ekstraditsiya shartnomasining kelib chiqish tarixi, BMTning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi hamda Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasi, shuningdek boshqa xalqaro hujjatlar asosida ushlab berish institutining tartibga solish asoslari.

АННОТАЦИЯ: Демократизация общества и государства, развитие экономических отношений требуют развития международного сотрудничества во всех сферах государственной деятельности, включая борьбу с преступностью, укрепление связей с зарубежными партнерами. Особая роль международного сотрудничества в борьбе с преступностью связана с экстрадицией лиц, совершивших преступления. В данной статье правовая основа института экстрадиции основана на международных конвенциях, включая Конвенцию ООН против коррупции и Конвенцию против транснациональной организованной преступности, принятую в 2003 году, к которой присоединилось большинство стран, в части экстрадиции правовая основа экстрадиции. Изучены и проанализированы теоретические и правовые вопросы института экстрадиции, а также нормативные правила. Сделаны

выводы относительно исследования теоретических и правовых вопросов института экстрадиции в международном праве.

Ключевые слова: экстрадиция, принципы института экстрадиции, история договора об экстрадиции, Конвенция ООН против коррупции и Конвенция против транснациональной организованной преступности, а также нормативные основы института экстрадиции на основе других международных документов.

ABSTRACT: Democratization of society and the state, development of economic relations requires the development of international cooperation in all spheres of state activity, including the fight against crime, and strengthening of relations with foreign partners. A special role of international cooperation in the fight against crime is related to the extradition of persons who have committed crimes. In this article, the legal basis of the institution of extradition based on international conventions, including the UN Convention against Corruption adopted in 2003 and the Convention against Transnational Organized Crime, to which most countries have joined, regarding extradition, the legal basis of extradition, and the theoretical and legal issues of the institution of extradition, and regulatory rules have been studied and analyzed. Conclusions were given regarding the study of the theoretical and legal issues of the institution of extradition in international law.

Key words: extradition, the principles of the extradition institution, the history of the extradition treaty, the UN Convention against Corruption and the Convention against Transnational Organized Crime, as well as the regulatory bases of the extradition institution based on other international documents.

KIRISH. Dunyoda globallashuv va integratsiya jarayonlarining tezlashishi natijasida davlatlarning sa’y-harakatlarini birlashtirish va ekstraditsiya sohadagi hamkorlikni yangi, samarali shakllarda birlashtirish xalqaro hamjamiyat e’tiborini tortadigan ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda. Jinoyatchilikning milliy xavfsizlikka tahdidi, uning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi, o‘z navbatida, birinchi navbatda, xalqaro miqyosda transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashni talab qiladi. Shu bilan birga, xalqaro huquqda jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlik mexanizmini amalga oshirish, uni tizimlashtirish, yagona me’yoriy-huquqiy bazani yaratish, jinoiy odil sudlovning turli shakllarida huquqiy hamkorlik, mintaqaviy va universal xalqaro tashkilotlar

doirasida ikki va undan ortiq tajribaga ega bo‘lishiga qaramay, shuni ta’kidlash kerakki har tomonlama texnik yordam ko‘rsatish, qochqinlarni ekstraditsiya qilish sohasidagi hamkorlik, sud hukmini ijro etish uchun mamlakatga repatriatsiya zamonaviy xavf-xatarlarga muvofiq yetarlicha shakllanmagan.

Yevropa davlatlari o‘rtasidagi jinoiy ishlar bo‘yicha xalqaro hamkorlikning amaldagi mexanizmi 1957-yildagi ekstraditsiya to‘g‘risidagi Yevropa Konvensiyasi, Konvensiyaga I, II, III, IV qo‘shimcha protokollar, 1959-yillardagi “Jinoiy ishlar bo‘yicha o‘zaro huquqiy yordam to‘g‘risida”gi Yevropa Konvensiyasi hamda fundamental xalqaro huquqiy hujjatlar masalan, 1972-yil “Jinoyat ishini o‘tkazish to‘g‘risida”gi Yevropa Konvensiyasi va 1983-yil “Mahbuslarni ko‘chirish to‘g‘risida”gi Yevropa Konvensiyasiga asoslanadi[1]. Ekstraditsiya davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarda jinoyatchini jinoiy javobgarlikka tortish yoki sud tomonidan tayinlangan jazoni ijro etish maqsadida vakolatli yurisdiksiyaga yetkazish tartibi sifatida, qoida tariqasida, xalqaro shartnomalar qoidalariga asoslanadi”[2].

Bundan tashqari, **ekstraditsiya** – bu bir davlat qonunlariga binoan jinoyatda ayblangan yoki sudlangan shaxsning boshqa davlatda hibsga olinishi va sud yoki jazo uchun sobiq davlatga qaytarilishi jarayoni hisoblanadi. Garchi davlatlar xalqaro huquqda shaxslarni ekstraditsiya qilish bo‘yicha umumiy majburiyatlarga ega bo‘lmasalar ham, bu amaliyot keng tarqalgan va deyarli universal institut sanaladi. Shunga qaramay, xalqaro huquqda ekstraditsiya jarayoni jiddiy kamchiliklarga ega[3].

Davlatlarning ekstraditsiya qilish masalasida o'zaro munosabatlar prinsipi xalqaro hamkorlikning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi, chunki har qanday hamkorlik o‘zaro manfaatli bo‘lishi kerak. Bu tamoyil jinoyat qonunchiligida qadimdan ma’lum bo‘lgan. Davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik ba’zan shu qadar ko‘p qirraliki, ularning munosabatlari shu qadar murakkablashadiki, shartnoma tuzishda aniq masalalar e’tibordan chetda qoladi. Bunday hollarda o‘zaro munosabat tamoyilining ahamiyati ortadi. Ushbu tamoyil jinoyatchini ekstraditsiya qilishni so‘ragan davlat kelajakda bu davlat ham shunga mos ravishda javob berishiga umid qilishiga asoslanadi. R.A. Sayfulovning so‘zlari bilan aytganda, “bu tamoyil, ayniqsa, ekstraditsiya institutini qo‘llashda muhim rol o‘ynaydi va uni milliy qonunchilikda mustahkamlash zarur”[4]. Dunyo bo‘ylab juda ko‘p noyob huquqiy tizimlar mavjudligi tufayli xalqaro ekstraditsiya jarayonini boshqarish uchun yagona qoidalar to‘plami mavjud emas. Binobarin, ekstraditsiya berilishi mumkin bo‘lgan shartlar juda farq qiladi. Aksariyat davlatlar qochqinlarni faqat qonun yoki shartnoma bo‘yicha avtorizatsiya asosida o‘z hududlaridan ekstraditsiya qilishni talab qiladi.

[1] European Treaties database [Electronic resource]: http://www.coe.int/
[2] Shearer I. Extradition in International Law. Leiden. 1971
[3] John G. Kester, Some Myths of United States Extradition Law, 76 GEO. L.J. 1441 (1988).
[4] Sayfulov R.A. Ekstraditsiya v ugolovnom protsesse (po materialam MVD I Prokuraturi Respubliki Uzbekistan). Avtoref. diss. … kand. yurid. nauk. - Tashkent, 2001. – P.10.

Deyarli barcha ekstraditsiyalar ikki tomonlama ekstraditsiya shartnomalari yoki konvensiyalariga muvofiq amalga oshiriladi, garchi ba'zi istisno shartlar davlatlar o'rtasidagi jarayonni murakkablashtirishi mumkin.

Ekstraditsiya tamoyillari bevosita uning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Bu to'g'risida turli qarshlar mavjud bo'lib, jumladan,

1) Uning faqat jinoyat sodir etgan jismoniy shaxsga nisbatan tatbiq etilishi;
2) Komplekslik;
3) Xalqaro va davlat ichki huquqi bilan bilan tartibga solinishi;
4) O'zaro hamkorlik qilayotgan mamlakatlar tomonidan i jinoyat sodir etgan shaxslarni jinoiy ta'qib etis yoki ularga nisbatan sud tomonidan tayinlangan jazoni qo'llash maqsadlarida amalga oshiriladi;
5) Milliy va xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurashda ushbu institut imkoniyatlaridan foydalanishni xalqaro huquq bosh subyektlari sifatida muayyan davlatlar va suveren birliklar o'zlari uchun maqbul deb topishi bilan qo'llaniladi[5].

Shunday bo'lsada, jinoyatchilarni ushlab berishda davlatlar hamkorligining asosiy tamoyillari sifatida quyidagilarni keltirish maqsadga muvofi qdir:

Muayyan jinoyatlar uchun ekstraditsiya qilinishi. Mazkur tamoyilda sodir etilgan jinoiy qilmish jinoyatchini ushlab berish uchun asos bo'lishi mumkin bo'lgan jinoyat turlari ro'yxatida bo'lishi lozim. Qonunchilikda jinoyat uchun kamida bir yil ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan bo'lishi talab etiladi. Bu dunyoning aksariyat mamlakatlari, jumladan Gollandiya, Gretsiya, Fransiya, GFR, Shvetsiya kabilarning qonunchiligida o'z aksini topgan. Mazkur qoida 2003-yil 12-fevralda O'zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi o'rtasida tuzilgan "Ushlab topshirish to'g'risida"gi[6] shartnomada o'z aksini topgan.

Ikki yoqlama sudlovlilik. Bu tamoyilni ba'zida jinoyat tarkibini ikki yoqlama belgilovchi tamoyil, ikki yoqlama jinoiylik va ikki yoqlama hisoblash tamoyili deb ham ataydilar.

Ixtisoslashgan ta'qib. Aniqlik tamoyili deb ham yuritiluvchi ushbu tamoyilga ko'ra, ushlab berilgan shaxs faqatgina u ushlab berilgan jinoyati uchungina jinoiy ta'qib etilishi mumkin, ya'ni ekstraditsiya qilingan shaxsni faqatgina u ushlab berilgan jinoyati bo'yicha sud qilish mumkin. Ushbu talab "Ushlab berish to'g'risida Yevropa Konvensiyasi"[7]da (14-modda) o'z aksini topgan bo'lib, unga ko'ra, ushlab

[5] Карасева Е.В. Процессуалные аспекты международного сотрудничества органов предварительного следствия МВД РФ. – Москва, 2000. – 80 с.

[6] O'zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi o'rtasida tuzilgan "Ushlab topshirish to'g'risida"gi shartnoma // "NORMA" Axborot-huquqiy tizimi.

[7] Internet sayti: http://zakon.kuban.ru/private/ekv.htm

ISSN: 7675-6548 (E)

berilgan shaxs buning uchun asos bo‘lgan jinoyatidan boshqa biron qilmish uchun jinoiy ta’qibga yoki turma qamog‘iga olinishi, erkinligi cheklanishi mumkin emas.

Hamkorlik tamoyili. R.A.Sayfulov fikriga ko‘ra[8], ushbu tamoyil ayniqsa, ekstraditsiya institutini qo‘llashda asosiy o‘rin egallaydi hamda uni tuzilayotgan ikki tomonlama shartnomalarda va milliy qonunchilik hujjatlarida mustahkamlash zarur.

Universiallik. Xalqaro jinoyatchilik, ya’ni butun xalqaro jamiyatning asosiy qadriyatlariga tajovuz qiluvchi qilmishlar uchun javobgarlikni belgilash tizimini takomillashtirish mahsuli sifatida shakllangan tamoyil hisoblanadi.

Javobgarlikning muqarrarligi. “aut dedere autjudicare” – ushbu iboraning o‘zbekcha tarjimasi “yo topshirish yo sud qilish” va shu kabi ma’nolarni anglatadi.

O‘z fuqarolarini ushlab bermaslik.

Jinoyatning talab bilan murojaat etgan mamlakat hududida sodir etilganligi.

Jinoiy ta’qib etish muddati o‘tmaganligi. Taraflardan birining qonunchiligiga ko‘ra, javobgarlikka tortish muddati o‘tib ketganligi munosabati bilan jinoiy ta’qibni amalga oshirish yoki hukmni ijro etish mumkin bo‘lmasa, jinoyatchini ushlab berish rad etiladi.

Siyosiy jinoyati uchun javobgarlikdan ozod etish – talab etilayotgan shaxs siyosiy jinoyat sodir etishda ayblanayotgan hollarda ham shaxsni ushlab berish rad etilishi mumkin. Ushbu holat ilk marta 1834-yilda Fransiya va Belgiya o‘rtasida imzolangan shartnomaga tarqaladi.

Qaytarmaslik – mazkur tamoyil 1951-yilda qabul qilingan “Qochoqlar maqomi to‘g‘risida”gi Konvensiyada o‘z aksini topgan.

Ikki marta sudlanmaslik (“non bis in idem”) – shartnoma tuzish davomida davlatlar odatda ushlab berishni rad etish asoslaridan biri sifatida usjhlab berish talab etilayotgan jinoyat hodisasi yuzasidan hukm yoki jinoyat ishini tugatish bo‘yicha qaror chiqarilganligini keltirib o‘tadilar.

Uchinchi davlat fuqarosini ushlab bermaslik – bu tamoyilda uchinchi davlat fuqarosini ushlab berish to‘g‘risida talab kelib tushsa, ushlab berishda jiddiy to‘siq bo‘lmaydiv har bir davlat o‘z normariga muvofiq harakat qiladi. Bu holda ushlab berish majburiyati ko‘zda tutilmaydi.

Moliyaviy jinoyatlar uchun javobgarlik – bu borada xususan, soliq, boj, bojxona tovlovlari va valyuta bilan bog‘liq moliyaviy huquqbuzarliklar uchun Yevropa konvensiyasida alohida maqom berilgan. 1988-yilgi Yevropa konvensiyasining ikkinchi qo‘shimcha bayonnomasida moliyaviy jinoayatlar uchun ushlab beishga jinoyatning asosiy elementlari ovzaro muvofiq tushadiga hollardigana yo‘l qo‘yilishi mumkin deb belgilangan.

[8] Sayfulov R.A. Ekstraditsiya v ugolovnom protsesse (po materialam MVD I Prokuraturi Respubliki Uzbekistan). Avtoref. diss. … kand. yurid. nauk. - Tashkent, 2001. – P.10.

Insonparvarlik nuqtai nazaridan ushlab berishni rad etish – bu hollarda jinoyatchining qariligi va jiddiy kasallikga duchor bo‘lganligi sababli ushlab berishni rad etishi mumkin bo‘lgan holatlar hisoblanadi.

Bir so‘z bilan aytganda ekstraditsiya bo‘yicha xalqaro tamoyillar va normalar davlatlar hamkorligini ta’minlashning asosiy sharti hisoblanadi.

MATERIAL VA METODLAR. Mazkur maqola tahliliy tadqiqot sifatida xalqaro huquqiy-hujjatlar va ilmiy-nazariy manbalar tahlilini o‘z ichiga oladi. Ushbu maqolada sohaga oid ilmiy tushunchalar, ushlab berish institutining nazariy-huquqiy masalalarini tartibga soluvchi xalqaro huquqiy hujjatlar tahlil qilingan. Maqola mavzuga oid tushunchalarni o‘rganishdan boshlangan hamda ekstraditsiya institutining nazariy-huquqiy masalalarini tartibga soluvchi xalqaro huquqiy hujjatlar tahlil qilinib, xulosalar bilan yakunlangan.

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda tizimli hamda qiyosiy-huquqiy tahlil qilish, shuningdek, induksiya, deduksiya, analiz, sintez, tarixiy-huquqiy ma’lumotlarni tahlili kabi usullardan foydalanilgan.

TADQIQOT NATIJALARI. Bugungi kunga kelib korrupsiyaviy jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni ushlab berish institutining tahlili, ekstraditsiya masalasi nafaqat milliy yondashuv ya’ni davlatlar o‘zlari ishlab chiqqan normativ-huquqiy hujjatlar asosida, balki xalqaro yondashuv ham dunyo hamjamiyati oldidagi eng muhim muommalaridan biri hisoblanib kelmoqda.

Ekstraditsiya deganda xalqaro shartnomalar qoidalari va milliy (konstitutsiyaviy, jinoiy va jinoyat-protsessual) qonun hujjatlari normalariga asoslangan xalqaro hamkorlik turi tushunilishi kerak, u ekstraditsiya qilish to‘g‘risidagi talab (so‘rov) mavjud bo‘lganda jinoiy javobgarlikka tortish, odil sudlovni amalga oshirish yoki shaxsga nisbatan qonuniy kuchga kirgan hukmni ijro etish maqsadida tutib berishga olib keladigan jinoyat sodir etgan shaxsni topshirish tartibidan iborat.

Qayd etish lozimki, ekstraditsiya to‘g‘risidagi ilk qoidalar mil.avv.1280-yilga borib tarqaladi. Eng mashhur hujjatlardan biri bo‘lmish 1296-yilda Misr fira’vni Ramses II va Xettlar shahzodasi Xattusili o‘rtasida imzolangan shartnomada xettlar podshohi hududiga qochib o‘tgan shaxslarning Misr fira’vniga qaytarilishi to‘g‘ridagi qoida o‘z aksini topgan[9]. D.P.Nikolskiy[10] qadimgi Yunoniston shahar-davlatlari o‘rtasidagi shartnomalarda hamda Gretsiya va Rim imperiyasi o‘rtasidagi shartnomalarda qochoq qullarga nisbatan ushlab berish va o‘z mamlakatiga qaytarishga oid qoidalar ham o‘z ifodasini topganini yozadi. Tarixan ekstraditsiya qilinadigan jinoyatlar asosan siyosiy harakterga ega bo‘lgan. Oddiy jinoyatchilar jamiyat uchun xavf sifatida qaralmagan, shuning uchun suveren

[9] Butkevich.O.V.Mejdunarodnoe pravo Drevnogo Egipta//GiP. – 2000. - №5. – C. 75-84

[10] Nikolskiy D.P. O vidacha prestupnikov po nachalam mejduranodnonom pravo. SPb., 1884. – C. 44-49.

davlatlar ularni kamdan-kam qidirishgan. Ammo davlatga qarshi harakat qilgan shaxslar tez-tez ta'qib qilinar va qattiq jazolangan. Bunday hollarda boshpana faqat davlatga foyda keltiradigan holatlarda berilgan. Shuning uchun boshpana ekstraditsiya qilish uchun istisno bo‘lgan. Ushbu amaliyot vaqt evolyutsiyasi va xalqaro tartib bilan o‘zgarib bordi. Ekstraditsiya norma bo‘ldi hamda boshpana berish bilan sezilarli cheklandi. Ushbu o'zgarish bilan birga siyosiy huquqbuzarlikda istisno tushunchasi paydo bo‘ldi.

Inqiloblar bilan to‘lgan va tez-tez siyosiy qo‘zg‘olon mentaliteti bilan birga kelgan XVIII asr siyosiy huquqbuzarlar va siyosiy jinoyatlarga yangicha munosabatda bo‘ldi. Ko‘pgina Yevropa demokratiyalari inqilob mahsuli bo‘lgan va shu bilan siyosiy jinoyatchilar va qochqinlarni ekstraditsiya qilishga qat'iy qarshi chiqishgan. Belgiya "Ekstraditsiya qilish to‘g‘risida"gi 1833-yilgi qonun siyosiy huquqbuzarlik doktrinasining qonuniy boshlanishi edi[11]. Unda istisno holatlar juda keng bayon qilingan. Belgiya ushbu qonunni keyingi barcha ekstraditsiya shartnomalariga kiritdi hamda boshqa mamlakatlar ham shu namunaga amal qila boshlashdi[12].

Ekstraditsiya jinoyatchilikka, xususan, giyohvand moddalar savdosi va terrorizm kabi transmilliy jinoyatlarga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikning asosiy elementi sifatida tan olingan[13]. Xususan, korrupsiyaviy jinoyatlarga qarshi kurashda ham muhim sanaladi. Yaqinda taniqli avstraliyalik sudya aytganidek[14], harakatchanlik, interaktiv texnologiyalar va jinoyatchilikning yangi shakllari dunyosida ekstraditsiya zamonaviy jinoyatchilikning xususiyatlariga muhim javobdir". 2003-yil iyul oyida sobiq prezidentni ekstraditsiya qilish to‘g‘risidagi so‘rov Alberto Fujimori Peruda qotillik ayblovlariga duch kelish uchun sobiq davlat rahbarlari, shu jumladan Augusto Pinochet va avstraliyalik Kristofer Skase va meksikalik Karlos Kabal kabi ishbilarmonlarni ekstraditsiya qilish bo‘yicha bir qator yuqori darajadagi ishlarning so‘nggi ishi edi.

Jumladan, 2003-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi" (UNCAC) qabul qilingan. Ushbu hujjat korrupsiyaga qarshi kurash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda muhim xalqaro shartnoma hisoblanadi va bugungi kunga qadar bir qancha davlatlar tomonidan qabul qilingan. UNCAC ya'ni konvensiyaning asosiy vazifalari etib a'zo davlatlar va ularda mavjud

[11] Qarang: Belgium Extradition Act, October 1, 1833.

[12] Qarang: This clause has been referred to as the Belgium clause, or now as the attentat clause. VAN DEN WIJNGAERT; supra note 2, at 16. Today, this clause excludes attacks on the Head of State from the exception. See GEOFF GILBERT, ASPECTS OF EXTRADITION LAW 116 (1991).

[13] Joint Standing Committee on Treaties, Parliament of Australia, Report 40: Extradition - A Review ofAustralia 's Law and Policy (2001) [2.5].

[14] Foster v Minister for Customs and Justice (2000) 200 CLR 442, 474 (Kirby J)

xususiy sektorda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan birinchi huquqiy majburiy xalqaro hujjatdir.

Xususan, ushbu konvensiyaning IV-bobi xalqaro hamkorlik deb nomlangan bo‘lib, davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro huquqiy hamkorlik munosabatlarini tartibga soladi. Konvensiyaning 43-moddasi xalqaro hamkorlik deb nomlangan bo‘lib, ishtirokchi davlatlar mazkur konvensiyaning 44-50-moddalariga muvofiq jinoiy-huquqiy masalalar bo‘yicha hamkorlik qiladilar. Ishtirokchi davlatlar, agar bu maqsadga muvofiq bo‘lsa va o’zlarining ichki qonunchilik tizimlariga to‘g‘ri kelsa, korrupsiya bilan bog‘liq bo‘lgan fuqarolik huquqiy va ma’muriy ishlarni tekshirish va amalga oshirish bo‘yicha bir-birlariga ko‘maklashish imkoniyatini ko‘rib chiqishi belgilab o‘tilgan.

Mazkur konvensiyaning 44-moddasi bevosita ushlab berish institutiga bag’ishlangan bo‘lib, mazkur Konvensiyada jinoyat deb tan olingan jinoiy xatti-harakatlarga nisbatan, agar ushlab berilishi lozim bo‘lgan shaxs so‘rov berilgan ishtirokchi davlat hududida bo‘lsa va sodir etilgan xatti-harakat so‘rov berilgan ishtirokchi davlatda ham, so‘rov berayotgan ishtirokchi davlatda ham jinoiy jazoga loyiq deb topilishi shartida qo‘llaniladi”[15].

Uyushgan va transmilliy jinoyatchilik sharoitida ekstraditsiya qilish qoidalarini o‘z ichiga olgan ko‘p tomonlama va ikki tomonlama shartnomalar tarkibida ekstraditsiya uchun kengaytirilgan rolning tan olinishi kuchaymoqda. 1985-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlarni jazolash bo‘yicha yettinchi Kongressi a’zo davlatlarni uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro miqyosda faolligini oshirishga chaqirdi[16]. Ushbu rezolyutsiya asosida BMT Bosh Assambleyasi 1990-yilda ekstraditsiya to‘g‘risidagi namunaviy shartnomani qabul qildi[17] va ekstraditsiya to‘g‘risidagi namunaviy shartnomaning jinoyatchilikning murakkab jihatlari va jiddiy oqibatlari, ayniqsa uning yangi shakllari va o‘lchovlari bilan kurashishning samarali usuli sifatida muhimligini tan oldi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasi (United Nations Convention against Transnational Organized Crime) Birlashgan Millatlar tashkiloti Bosh Assambleyasining 2000-yil 15-noyabrdagi qarori bilan qabul qilingan[18] bo‘lib, unga 147 ta davlat imzo chekkan. Mazkur Konvensiya 2003-yil 29-sentyabrdan kuchga kirgan.

Mazkur Konvensiyaning 16-moddasiga ushbu uyushgan jinoyatchilik va

[15] O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-iyuldagi “Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York, 2003-yil 31-oktyabr) O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida”gi Qonuni // [Elektron manba]. URL: https://lex.uz/doks/1369505.
[16] GA Res 39/112, UN GAOR, 39 b sess, 101st mtg, UN Doc A/RES/39/I12 (14 December 1984).
[17] GA Res 45/116, UN GAOR, 45th sess, 68 plen mtg, annex, UN Doc A/RES/45/116 (14 December 1990).
[18] GA Res 55/25, UN GAOR, 55t sess, 62nd plen mtg, Annex I, UN Doc A/RES/55/25 (15 November 2000)

korrupsiyaviy huquqbuzarliklariga nisbatan ekstraditsiya majburiyatlari kiradi. Unda Konvensiya bilan qamrab olingan uyushgan jinoyatchilik ishtirokchi davlatlar o‘rtasidagi har qanday ekstraditsiya shartnomasida ekstraditsiya qilinadigan jinoyat hisoblanadi. Agar tomonlar o‘rtasida ekstraditsiya shartnomasi mavjud bo‘lmasa, Konvensiya ekstraditsiya uchun huquqiy asos sifatida qabul qilinishi mumkin. Masalan, Meksika 2003-yil mart oyida ushbu konvensiyani ratifikatsiya qilganida, Konvensiyani ekstraditsiya shartnomalarini tuzmagan davlatlar bilan ekstraditsiya qilishda hamkorlikning huquqiy asosi sifatida ko‘rib chiqishini e’lon qildi.

BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasining 16-moddasiga batafsilroq to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, mazkur modda uyushgan jinoyatchilik va korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga nisbatan ekstraditsiya majburiyatlariga bag‘ishlangan. Ushbu modda mazkur Konvensiyada nazarda tutilgan huquqbuzarliklarga nisbatan qo‘llaniladi yoki 3-modda, 1-band(a) yoki (b) bandida ko‘rsatilgan huquqbuzarlik uyushgan jinoiy guruh va ekstraditsiya so'rovining predmeti bo‘lgan shaxs talab qilingan davlat hududida joylashgan hollarda ishtirokchi, ekstraditsiya qilinadigan huquqbuzarlik talab qilinayotgan davlat tomonining ham, so‘ralgan davlat tomonining ham ichki qonunchiligiga binoan jazolanishi sharti bilan qo‘llaniladi. Agar ushlab berish to‘g‘risidagi so‘rov ushbu moddada qamrab olinmagan bir nechta alohida og‘ir jinoyatlarni o‘z ichiga olsa, so‘ralayotgan ishtirokchi-davlat ushbu moddani oxirgi jinoyatlarga nisbatan ham qo‘llashi mumkin.

Ushbu moddada qo‘llaniladigan jinoyatlarning har biri ishtirokchi davlatlar o‘rtasida mavjud bo‘lgan ushlab berish to‘g‘risidagi shartnomaga ekstraditsiya qilish mumkin bo‘lgan jinoyat sifatida kiritilgan deb hisoblanadi. Ishtirokchi davlatlar o‘zlari o‘rtasida tuziladigan ushlab berish to‘g‘risidagi har bir shartnomaga bunday jinoyatlarni ekstraditsiya qilish mumkin bo'lgan jinoyatlar qatoriga kiritish majburiyatini oladilar. Shuningdek, agar ushlab berishni shartnoma mavjudligi sharti bilan qo‘yadigan ishtirokchi davlat o‘zi bilan ushlab berish to‘g‘risida shartnoma tuzmagan boshqa ishtirokchi davlatdan ushlab berish to‘g‘risidagi so‘rovni olsa, u ushbu Konvensiyani ushlab berishning har qanday jinoyati uchun huquqiy asos deb hisoblashi mumkin.

Ekstraditsiyani shartnoma mavjudligiga bog‘lamagan ishtirokchi-davlatlar ushbu modda qo‘llaniladigan jinoyatlarni o‘zaro ushlab berish mumkin bo‘lgan jinoyatlar deb tan oladilar. Ushlab berish so‘ralayotgan ishtirokchi davlatning ichki qonunchiligida yoki ushlab berish to‘g‘risidagi amaldagi shartnomalarda nazarda tutilgan shartlarga, shu jumladan, ekstraditsiya uchun eng kam jazo talabiga oid shartlarga va so‘ralayotgan ishtirokchi-davlatning asoslarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Ishtirokchi davlatlar o‘zlarining ichki qonunchiligini hisobga olgan holda, ekstraditsiya tartib-taomillarini tezlashtirishga va ushbu modda qo‘llaniladigan har qanday jinoyatga oid dalil talablarini soddalashtirishga harakat

qiladilar.

O‘zining ichki qonunchiligi va ushlab berish to‘g‘risidagi shartnomalari qoidalarini hisobga olgan holda, so‘ralayotgan ishtirokchi davlat shartlar shunday asosli va shoshilinch ekanligiga ishonch hosil qilib, so‘ralayotgan ishtirokchi davlatning iltimosiga ko‘ra ushlab berilishi so‘ralgan shaxsni qabul qilishi va o'z hududida qamoqda bo‘lgan yoki ekstraditsiya jarayonida uning hozir bo‘lishini ta‘minlash uchun boshqa tegishli choralarni ko‘radi. Hududida gumon qilinayotgan jinoyatchi topilgan ishtirokchi davlat, agar u ushbu modda qo‘llaniladigan jinoyatga nisbatan bunday shaxsni faqat uning fuqarolaridan biri ekanligi sababli ekstraditsiya qilmasa, iltimosiga binoan ekstraditsiya qilishni so‘ragan ishtirokchi davlatning ishni jinoiy ta’qib qilish maqsadida o‘z vakolatli organlariga kechiktirmasdan taqdim etishi shart. Ushbu organlar o‘z qarorlarini qabul qiladilar va o‘z ish yuritishlarini shu ishtirokchi davlatning ichki qonunchiligiga muvofiq ogvir harakterdagi boshqa har qanday jinoyatga nisbatan xuddi shunday tarzda olib boradilar. Tegishli ishtirokchi-davlatlar bunday ta’qibning samaradorligini ta’minlash uchun bir-biri bilan, xususan, protsessual va dalillar bo‘yicha hamkorlik qiladilar.

XULOSA. Xalqaro huquqda transmilliy jinoyat sifatida e’tirof etilgan korrupsiyaviy jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni ushlab berish institutini tartibga solish masalalari bo’yicha quyidagi xulosalarni taqdim etishimiz mumkin: Jinoyatga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikning alohida o‘rni jinoyat sodir etgan shaxslarni ekstraditsiya qilish bilan bog‘liq. Ushlab berish instituti asosida ma’lumotlar, tajriba va eng yaxshi amaliyotlarni o’zaro almashish hamda qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish kabi elementlar muhim rol o’ynaydi. Korrupsiyaviy jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni ushlab berish doirasida mavjud bo’lgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun xalqaro shartnomalar va konvensiyalarga milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish zarur.

Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi hamda Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasi, Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti (OECD)ni korrupsiyaga qarshi konvensiyasi kabi xalqaro shartnomalarda xalqaro hamkorlik doirasida ekstraditsiya masalalari belgilab o’tilgan. Bu standartlar davlatlarning jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni ushlab berish borasidagi majburiyatlarini belgilab beradi.

Mazkur tadqiqotimiz jarayonida BMTning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi terminologiyasida rus va ingliz tillarida nomuvofiqlik va ziddiyatlar mavjudligini aniqlandi, shu munosabat bilan Konvensiyaning ingliz tilidagi variantidan foydalanish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqildi. Xususan, “solicitation” atamasining analogi, ya’ni o‘xshash varianti sifatida Konvensiya standartlarini tushunishda normaning ma’nosini buzadigan “vimogatelistvo” atamasi o‘rniga lug‘aviy ma’nosi va mazmunini to‘g‘riroq

ifodalovchi “isprashivanie” (o‘zb. “so‘rash”) atamasini qo‘llashni taklif etamiz.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-iyuldagi “Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York, 2003-yil 31-oktyabr) O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida”gi Qonuni // [Elektron manba]. URL: https://lex.uz/doks/1369505.
2. Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to‘g‘risidagi konvensiya 1999-yil 27-yanvar Fransiya, Strasburg shahri. https://rm.coe.int/168007f3f5
3. Birlashgan Millatlar Tashkilotining transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasi (United Nations Convention against Transnational Organized Crime). https://www.unodc.org/unodc/en/organized-crime/intro/UNTOC.html.
4. Belgiyaning “ Ekstraditsiya to‘g‘risida”gi shartnoma, 1833-yil 1-oktabr.
5. Ekstraditsiya bo‘yicha xalqaro-huquqiy hamkorlik. Monografiya. D.Umarxanova. T-2010
6. O‘zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi o’rtasida tuzilgan “Ushlab topshirish to‘g‘risida”gi shartnoma // “NORMA” Axborot-huquqiy tizimi. https://lex.uz/docs/-1327844
7. Sayfulov R.A. Ekstraditsiya v ugolovnom protsesse (po materialam MVD I Prokuraturi Respubliki Uzbekistan). Avtoref. diss. … kand. yurid. nauk. - Tashkent, 2001. – P.10.
8. John G. Kester, Some Myths of United States Extradition Law, 76 GEO. L.J. 1441 (1988).
9. Joint Standing Committee on Treaties, Parliament of Australia, Report 40: Extradition - A Review of Australia 's Law and Policy (2001) [2.5].
10. Foster v Minister for Customs and Justice (2000) 200 CLR 442, 474 (Kirby.J).
11. M.Cherif Bassiouni, Universal Jurisdiction for International Crimes: Historical Perspectives and Contemporary Practice, 42
12. Карасева Е.В. Процессуалные аспекты международного сотрудничества органов предварительного следствия МВД РФ. – Москва, 2000. – 80 с.